



OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIK: TA'LIMDA MUVAFFAQIYATNING KALITI.

Guliston davlat pedagogika instituti Pedagogika
yo'nalishi 2- kurs talabasi
Burxonova Malika Fazliddin qizi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda ota-onalar farzandining ta'lif va tarbiya masalalariga qanchalik e'tibor berayotganligi va o'qituvchilar bilan olib borayotgan hamkorligi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ota-onas, farzand, ta'lif, individuallik, ta'lifda muvaffaqiyatlar, hamkorlik, tarbiya, jamiyat.

Kirish: Ma'lumki, mamlakatimiz ta'lif-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish maqsadida Prezident farmoni loyihasi ishlab chiqildi. Mazkur hujjat regulation.gov.uz portaliga qo'yilib, barcha hududlarda, mahalliy kengashlarda va maktab jamoalarida ota-onalar ishtirokida keng muhokama qilindi. „Muallimlar soni bo'yicha endi masalamiz qolmadi, endi e'tibor sifatga” – deya ta'kidlaydi prezident. “Biz ota-onalar bilan yetarlicha ishlay olmayapmiz. Toki ularning maktabga, ustozga munosabati o'zgarsin. Men Janubiy Koreya islohotlarini ko'p o'rganaman. Ular 50-60 yil oldin juda qiyin vaziyatdagi kambag'al davlat bo'lgan.

Oltini yo'q, misi yo'q, nefti yo'q kichkinagina davlat bugun iqtisodi bo'yicha o'ntalikka kirgan. Zamonaviy texnologiyalar bo'yicha esa mutlaq yetakchi. Ular ham qiyin davrlarni o'tkazishgan. Qaysiki o'quvchi maktabga bormasa, eshigini taqillatib “Sen jamiyatga qarshi ish qilyapsan” deya tushuntirishgan. Biz afsuski ana shunday ishlay olmayapmiz. Biz ham mahalla bilan hamkorlikda ana shunday ishlashimiz zarur. Farzand ta'lifi ota-onaga kerak bo'lmasa, biz qanday yordam berishimiz mumkin? Ota-onaga daromad kerakdir, lekin farzand ta'lifi, tarbiyasi birinchi navbatda bo'lishi shart” – deydi prezident Shavkat Mirziyoyev.



Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi: Farzandga yaxshi tarbiya berish ota-onaning asosiy mas’uliyatli vazifalaridan biridir. Bu borada ular har qadamda mas’uliyat bilan yondashmog‘i lozim. Kelajakdagi yo‘li ravon bo‘lishini istagan har bir ota-onalar sarflaydigan vaqtini va harakatini ertaning buyuk insonlari bo‘lgan farzandlarini ulg‘aytirish uchun sarflashlari lozim. Farzand kamoloti uchun sarflangan har bir daqiqa ertangi farovon hayot uchun tamal toshi bo‘ladi desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Agar ota-onsa vaqtida farzandiga e’tibor qaratmasa, uning kelajagi uchun qayg‘urmasa, keyinchalik afsus – nadomat bilan yashashi muqarrar. Bu kelajakda muammolarni yuzaga chiqarishi mumkin. O‘scha vaqtda esa muammolarni hal qilishga kech bo‘lishi mumkin. Shunday ekan, farzandining taqdiri uchun e’tiborli bo‘lib, uning xulqi, tarbiyasiga va ilm olishiga befarq bo‘lmaslik lozim.

Natijalar: Hozirgi kunda oila davrasida bilim olish va kitob o‘qish borasida suhbat qilish, farzandining ilm olishi xususida suhbatlar kamayib bormoqda. Farzandlarning ham o‘z vaqtini telefon bilan o‘tkazishi keng tus olyapti. Bunda me’yordan oshib ketish holatlari ko‘p uchramoqda. Farzandni kitob o‘qishga bo‘lgan muhabbatini oshirish uchun astoydil harakat qilinsa, bolada kitob o‘qishga ko‘nikma hosil bo‘ladi. Bilim olishga bo‘lgan intilish yanada kuchayadi. Bola tarbiyasida ota-onaning bir-biriga munosabati muhim sanaladi. Farzandning tarbiyasini faqat onaga tashlab qo‘yish to‘g‘ri emas. Bu borada otaning ham o‘rni beqiyosdir. Hayotda og‘il ko‘proq otaga qarab ergashadi. Otaning samimiyligi, hurmati va yaxshiligi farzandga kuch-quvvat bo‘ladi. Oilaning asosiy tirkagi bo‘lgan ota hayotning mashaqqatlarini kechib, o‘zining bukulmas irodasi, adolatparvarligi, hayot sinovlariga bardoshliligi bilan ajralib turuvchi buyuk shaxs sifatida gavdalanadi. Ota oilada o‘z farzandlariga yurish-turishda, nutq odobida, o‘zaro muomala madaniyatida to‘g‘rilik, halollik, samimiylilik yuzasidan namuna bo‘la oladi. Oilada samimiylilik, bir-biriga bo‘lgan mehr va hurmat yuqori bo‘lsa, farzandning o‘sib ulg‘ayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bolalar o‘sib borar ekan, ularning ruhiy va aqliy xislatlarida o‘zgarishlar bo‘lib boradi. Bu o‘zgarishlarni to‘g‘ri yo‘lga burish, ularga vaqtida e’tibor berish asosan onalarning burchidir. SHuningdek, onalar ham o‘z ustilarida ishlashlari, dunyoqarashlarini

kengayshiga harakat qilishlari, bolalar tarbiyasiga taalluqli adabiyotlar bilan tanishishlari, o‘zlar o‘rganayotgan tarbiya masalalariga oid ko‘rsatmalarni eng avvalo o‘zlarida tadbiq qilishlari lozim.

Muhokama: Ko‘pgina hollarda, ota-onalar farzandiga yomonroq baho qo‘ygan o‘qituvchiga o‘z farzandini ko‘proq narsaga loyiq deb da‘vo qilish uchun tez-tez ta’lim maskaniga kelib turishadi. Eng yomoni, ota-onalar farzandlarining noto‘g’ri xatti-harakatlari tufayli chaqirilganda ota-onsa o‘zini maqtaydi va o‘qituvchini qoralaydi. Farzandining noto‘g’ri xatti-harakatlarini to‘g’irlash uchun o‘qituvchi bilan hamkorlik qilish o‘rniga, ular hatto farzandining qilmishining to‘g’ri ekanligini va bu haqda tashvishlanadigan hech narsa yo‘qligini tasdiqlaydilar. Tarbiya qanchalik erta boshlansa, hosili ham shuncha barvaqt ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun ota-onalar va ta’lim muassasalari tarbiyachilari, ma’naviyat va ma’rifat ishlari o‘qituvchilar hamda pedagoglarning vazifasi yosh avlodni aqlan yetuk, jismonan sog’lom, axloqan pok, barkamol inson qilib, kelajakda teran fikrlay oladigan qilib tarbiyalashdan iboratdir. Shuni ta’kidlash joizki, bola tarbiyasi bilan jiddiy shug’ullangan ota-onalarning farzandlari ta’lim muassasasida o‘z imkoniyatlarini mashg’ulot jarayonida qiynalmasdan ko‘rsata oladi. Oila va ta’lim muassasalarining uzluksizligi bolani nafaqat jismoniy va aqliy jihatdan ham rivojlantiradi, balki uning ma’naviy shakllanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Hozirda ba’zi ota-onalarning mактабда o‘qituvchi tomonidan bolasiga berilgan dakki yoki tarbiyani tushunmay maktab ma’muriyatiga, o‘qituvchilarga turli tazyiq o‘tkazish holatlari uchrab turadi. Oddiy koyiganda ham uyiga aytib boradiganlari bor. Bu ishni qiladiganlarning o‘zini ko‘rsatmoqchi bo‘lgan tushunchasi bor. O‘qituvchining ota-onalar bilan majlisi ham qog‘ozda emas, jonli tarzda ikki tomonning ham faol ishtiroki bilan bo‘lishi zarur, shundagina ta’lim-tarbiyada oldinga siljish mumkin. Qachonki ota-onsa bolasining kelajagini o‘ylamoqchi ekan, o‘qituvchi bilan hamkorlik qilishi lozim. Buning aksini qilib o‘qituvchiga bosim o‘tkazsa, bu sinfning umumiyligi holatiga ta’sir qiladi, boshqa bolalar bilan ham ishlolmay qoladi. Abu Rayhon Beruniyning yuqorida bayon etilgan ilmiy asoslarida ota-onaalarning

bolaga e'tiborli bo'lishlari yoki uning ehtiyojlari qondirilishi zarurligi, bolaga bo'lgan munosabatdagi qattiq talabchanlikning salbiy ta'siri, ota-onalarning shaxsiga hurmat bilan qarab, uni yaxshi ko'rishi, ko'proq vaqtini bola bilan birga o'tkazishga harakat qilishi, uning qiziqishlari va rejalarini qo'llab-quvvatlashi zarurligi e'tirof etiladi. Aks holda, bolada xavotirlanish, jizzakilik, tushkunlik holatlarining paydo bo'lishiga va bu esa o'z-o'zidan undagi bilih jarayonlarining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, psixik hamda jismoniy rivojlanishdan orqada qolishga sabab bo'lib, uning shaxsi to'laqonli shakllanishiga salbiy ta'sir etishi ta'kidlanadi. Jadal suratda rivojlanib borayotgan fan va texnika zamon talablariga mos keluvchi malakali pedagoglarga zaruriyat yaratgani barchamizga aniq va ravshandir. Dunyo tobora rivojlanib, o'zgarib borgani sayin yosh avlodning dunyoqarashi, fikrlash doirasi, yondashuvlari ham unga mos ravishda o'zgarib bormoqda. Shu boisdan ham, eng avvalo, yangi avlod tabiatiga mos keluvchi zamonaviy va mustaqil fikrlovchi, axborot texnologiyalarini amaliyotda qo'llay oladigan, yangi ijodiy metodlar orqali yoshlarni ilm-fanga qiziqtira oladigan ijodkor pedagoglarni tayyorlash talab etiladi. Yoshi ulug', tajribali va malakali pedagoglar kam emas, biroq yosh avlodni bugungi zamonaviy muhitga ko'nikkan, zamonaviy texnologiyalardan xabari bor yoshlar tushunishadi. Bundan tashqari, o'qituvchi va pedagoglarni doimiy ravishta shug'ullanib, malaka oshirishiga imkoniyatlar yaratishli va balki, majburiy tajriba oshirishga yuborilishi ta'lim sifati oshishiga katta hissa qo'shamdi. Sababi pedagog qanchalik ko'p shug'ullangan, malakali bo'lsa, talaba va o'quvchilarining ilmiy faoliyati shunchalik yuqori bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, davlatning rivojlanishi uchun hamma davrda ham birinchi masala oddiy xalqning dunyoqarashini rivojlantirish bo'lgan. Biz qachonki maktabni o'zida bolalar tarbiyasini yaxshilamasak, ota-onalardagi loqaydlikni yo'qotmasak, o'qituvchilarni o'z ustida ishlashga o'rgatmasak, xalq ta'limi oqsayveradi. Albatta muvaffaqiyatning kaliti har bir jamiyatimizda tug'ilib o'sib kelayotgan yosh avlodga to'g'ri ta'lim-tarbiya berish ota-onalarning va tarbiyachi, o'qituvchilarimizning hamda jamiyatimizdagi buyuk shaxslarning burchi. Ta'limda

ham muvaffaqiyat qozonmoq uchun ijodiy qobiliyatni namoyon qilmoq, intellektual rivojlanishni ta'minlash, o'zi xohlagan kasbni tanlash va uni mukammal egallab, shu sohada baxtiyor faoliyat ko'rsatishdan iborat.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF5712- sonli „Ozbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni.
2. СХ.Таджиева, Д.Г.Сабирова "Танглик вазиятида колган болага психологик ёрдам курсатиш" Т.: РБИММ, 2011 й. 142 б.
- 3.,, Pedagogik kompetentlik" Rahmatova Feruza, Sheranova Mariyam, Boyto'rayeva Nasiba, Uktamova Umida.
4. <https://president.uz/oz/lists/view/1371>
5. <https://yuz.uz/uz/news/talim-tarbiya-tizimi-taraqqiyotning-yangi-bosqichi-muhokama-qilindi>.
6. „ Ijtimoiy Pedagogika" Isayeva Guli.
7. Xayrullaev M.M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari. Toshkent: O'zbekiston, 1971. - 310 b.